SO‘Z MA’NOSI KENGAYISHINING NAZARIY LINGVISTIK ASOSLARI

Isaqova Dinaraxon – Qo‘qon DU 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘zning til tizimidagi o‘rni, uning ifoda va mazmun jihatlari, shuningdek, leksik ma’no taraqqiyoti masalalari tadqiq etiladi. Maqolada so‘z ma’nosining kengayishi jarayoni nazariy jihatdan asoslanib, uzual va okkazional ma’nolar, kontekstual mazmun hamda polisemiyaning shakllanish mexanizmlari tahlil qilingan, shuningdek, "ko‘rmoq", "vatan", "quyosh" kabi so‘zlar misolida ma’no hajmining o‘zgarishi va lisoniy variantdorlik masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: semasiologiya, leksema, semema, referent, uzual ma’no, okkazional ma’no, kontekstual ma’no, ma’no kengayishi, polisemiya, ishora, semiotika.

Inson dunyoga kelishi bilan uning idrok faoliyatida tovush muhim o‘rin tutadi. Bola dastlab atrof-muhitni eshitish orqali qabul qiladi va tovushlar vositasida tashqi olam bilan ilk aloqani o‘rnatadi, ana shu tovushlar tizimi asta-sekin ma’no kasb etib, til birliklariga aylana boradi. Xususan, tovushning ma’no bilan uyg‘unlashuvi natijasida so‘z shakllanadi. So‘z esa tilning asosiy birligi sifatida inson tafakkurini ifodalash, fikrni shakllantirish va kommunikativ jarayonni amalga oshirishda yetakchi vosita hisoblanadi. Demak, inson hayotining ilk bosqichlaridayoq tovushdan so‘zga o‘tish jarayoni yuzaga kelib, u nutq va tafakkur taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Referent, ya’ni obyektiv borliqdagi nimadur: narsa, voqeylik, belgi, harakat, holat va boshqalardan biri ongimizda aks etadi. Bu tushuncha deb qaraladi. Tushuncha ma’no sifatida ma’lum bir fonetik shaklda o‘z aksini topadi – so‘z yuzaga keladi[1]. So‘z til tizimining eng muhim va asosiy birligi sifatida tilshunoslikda alohida o‘rin egallaydi, u nafaqat nomlash vositasi, balki inson tafakkurining moddiy ifodasi ham hisoblanadi. Fikrni shakllantirish va uni ifodalash jarayonida so‘z asosiy material vazifasini bajaradi, shu jihatdan qaraganda, har bir so‘z muayyan ma’no bilan bog‘langan bo‘lib, aynan shu ma’no orqali kommunikatsiya amalga oshiriladi. So‘z

[1] Miirtojiyev M. O‘zbek tili semisalogiyasi. – Toshkent, 2026. – B.3.

ma’nosi tilning semantik tizimini tashkil etuvchi muhim unsurlardan biri hisoblanadi, uning shakllanishi va taraqqiyoti jamiyat tarixi, madaniyati va tafakkuri bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur holat so‘z ma’nosini o‘rganishni tilshunoslikning markaziy masalalaridan biriga aylantiradi, shu bois, semasiologiya sohasi doirasida so‘z ma’nosining tabiati, tuzilishi va o‘zgarish qonuniyatlari ilmiy jihatdan tadqiq etiladi. Ayrim ishlarda “asosiy til birligi”, “til va nutqning eng muhim elementlaridan biri”, “tilning eng kichik asosiy birligi” deb umumiy tarzda va oddiygina ta’riflanadigan so‘z aslida juda murakkab xususiyatga ega. Uch-to‘rt og‘iz so‘z, hatto uch-to‘rt jumla bilan ham so‘zga to‘la ta’rif berib bo‘lmaydi. Shu vaqtga qadar lingvistik adabiyotlarda so‘zga uning boshqa hodisalardan farqini belgilovchi aniq, mukammal ta’rif yo‘qligining boisi ham ana shunda. So‘z til birligi sifatida juda murakkab xususiyatga ega ekan, so‘zga qandaydir umumiy yoki konkret ta’rif berishdan ko‘ra, uning o‘ziga xos tomonlarini, boshqa til birliklaridan farqli belgi-xususiyatlarini yoritish muhimdir[2]. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, so‘z ma’nosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish qadimgi davrlardan boshlangan bo‘lib, bu jarayon turli davrlarda turlicha yondashuvlar asosida rivojlanib kelgan, ayniqsa, antik davr mutafakkirlari tomonidan so‘z va ma’no munosabatlariga oid dastlabki nazariy qarashlar ilgari surilgan. Keyingi davrlarda esa bu masala yanada chuqurlashtirilib, zamonaviy tilshunoslikda mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Tilshunoslikning markaziy birligi bo‘lgan so‘z murakkab strukturaga ega bo‘lib, uning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash semasiologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Tilning asosiy lug‘at fondini tashkil etuvchi so‘z murakkab va ko‘p qirrali lingvistik birlikdir, til va uning birliklari semiotik xarakterdagi ijtimoiy hodisalardir. Semiotik hodisalar ishora, ramzlar xarakterida bo‘ladi, ularni semiotika fani o‘rganadi. Tilshunoslik ham semiotikaga daxldor va unga yaqin fan hisoblanadi, uning fonemadan yirik barcha birliklari (morfema, so‘z, frazema, gap) ramzlik (ishoralik) xarakteriga ega bo‘ladi. Shu bois tilshunoslik semiotika tizimi sifatida qaraladi, bu tizimda ham so‘z markaziy hodisa hisoblanadi. So‘zning ishora (ramz)lik

[2] O‘zbek tili semisalogiyasi. – Toshkent: FAN, 1981. – B.5.

xususiyati shundaki, uning o‘zaro munosabatdosh va taqozadosh ikki tomoni mavjud: ularning biri ifoda tomoni, ikkinchisi – mazmun jabhasidir[3]. Ushbu manbada til va so‘zning mohiyati chuqur yoritib berilganini ko‘rishimiz mumkin. Mualliflar tilni oddiy aloqa vositasi emas, balki belgilar tizimi sifatida ta’riflab beradi, darhaqiqat biz o‘z fikrimizni aynan so‘zlar orqali ifodalashga intilamiz va shu jarayon ichida har bir biz foydalangan so‘z ma’lum bir ma’noni bildiradi. So‘zning ikki tamoni ifoda va mazmun tamonini o‘rganish muhimdir, chunki biz nutqimizda ko‘pincha so‘zning faqat tashqi ko‘rinishiga e’tibor beramiz , lekin uning ichki ma’nosi juda muhimdir. Nutqimizda aynan bir so‘zni turli vaziyatlarda qo‘llab turlicha ma’no berishi ko‘rishimiz mumkin. Masalan, o‘zbek tilida ko‘rmoq fe’li turli kontekslarda turlicha ma’no kasb etadi:

Inson sezgi a’zosi ya’ni ko‘z orqali voqelikni anglash – haqiqiy ko‘rish: “*Men bugun daraxtda sarxil pishgan olmalarni ko‘rdim”*. Bu yerda fe’l oddiy harakatni bildiradi

Tajriba yoki bilish ma’nosi – voqelikni anglash: “*Hayotda ko‘p narsalarni o‘zingiz ko‘rishingiz kerak”*. Bu yerda “ko‘rmoq” voqealarni boshdan kechirish, tajriba orttirish ma’nosida ishlatilgan.

Biz so‘zlarni ifoda jabhalari orqali tassavur etamiz. So‘zning tovush va tovushlar birikmasidan tarkib topishi uning ifoda jabhasi hisoblanadi. So‘zlar ifoda jabhasiga nisbatan *leksema* deb, mazmun jabhasiga nisbatan esa *semema* deb ataladi. Masalan, kitob, parta, uy, olma so‘zlarining ifoda jabhasini shu so‘zlar tarkib topgan tovushlar tashkil qilgan: ular kitob, parta, uy, olma leksemalaridir. anglatgan manosiga ko‘ra esa, ular kitob, parta, uy, olma sememalaridir. Bundan anglashimiz mumkin bo‘ladiki so‘z ma’no tomoni bilan tilning mazmun jabhasiga tegishli bo‘ladi. Tilshunoslikda so‘z nafaqat tovushlar yig‘indisi, balki muayyan tushunchani ifodalovchi semantik struktura sifatida talqin etiladi. So‘z ma’nosi va uning leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganish tilning ichki imkoniyatlarini va nutqiy jarayondagi dinamikasini tushunishga xizmat qiladi. Leksemaning ma'no mundarijasini tahlil qilar

[3] Berdualiyev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Xo‘jand, 2013. – B.26.

ekanmiz, tadqiqotlarda uning uzual va okkazional ko'rinishlari farqlanishini ko'ramiz. Xususan, uzual ma'no til egasi bo‘lgan xalq tomonidan tan olingan, demak, ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan barqaror ma'no [4]bo'lsa, okkazional ma'no leksemaning tildagi ma’nosiga xos bo‘lmagan, ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha «tus» berishi natijasida yuzaga keltirilgan sun’iy ma’nodir[5].

Til tizimining poydevori bo‘lib xizmat qiluvchi leksik ma’no so‘zning semantik barqarorligini ta’minlasa, kontekstual ma’no uning nutqdagi dinamik tabiatini namoyon etadi. Leksik ma’no insonlar xotirasida lisoniy imkoniyat sifatida mavjud bo‘lsa, kontekst ushbu mavjud imkoniyatni aniq mazmun bilan to‘ldiruvchi va chegaralovchi muht vazifasini o‘taydi. Inson nutqiy faoliyatida so‘z shunchaki ma’no tashuvchi birlik emas, balki kontekst ta’sirida o‘zgaruvchan, egiluvchan vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Leksik ma’no umumxalq tilida invariant, bo‘lsa kontekstual ma’no muallifning kommunikativ maqsadidan kelib chiquvchi variantdir. O‘zbek tilshunosligining eng yirik va atolqi namoyondalaridan biri, fiologiya fanlar doktori, professor Shavkat Rahmatullayev o‘zing “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida so‘zning lug‘atdagi ma’nosini **lisoniy birlik**, matndagi ma’nosini esa uning **nutqiy voqelanishi** deb farqlaydi. Ushbu kitobda lissoniy ma’no va nutqiy ma’noni bir necha farqlarini ko‘rsatib o‘tadi, ular quyidagilar:

Lisoniy ma’no (leksik ma’no)	Nutqiy ma’no(kontekstual ma’no)
Lisoniy ma’no til birligi bo‘lib, shu tilda gapiruvchilar tomonidan tan olingan, qabul qilingan bo‘ladi.	Nutqiy ma’no esa individual nutq hodisasi bo‘lib, shu tilda gapiruvchilar orasida umumlashmagan, qabul qilinmagan, ayrim muallif nutqigagina xos bo‘ladi.
Lisoniy ma’no lug‘at boyligi tarkibiga kiradi, shunga ko‘ra u	Nutqiy ma’no esa umumtil lug‘ati boyligi tarkibiga kirishi mumkin bo‘lgan imkoniyat, shunga ko‘ra u umumtil lug‘atida berilmaydi.

[4] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin. – 2005. – B.152.
[5] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin. – 2005. – B.152.

umumtil lug‘atida beriladi va ayrim izohlanadi.	
Lisoniy ma’no shu tilda gapiruvchilar uchun umumiy bo‘ladi.	Nutqiy ma’no esa shu tilda bor lisoniy ma’nolardan birining ayrim muallif nutqida yangicha berilishi, yangicha baholanishidir
Lisoniy ma’no matnda namoyon bo‘ladi: lisoniy ma’no har galgi konkret matnda yuzaga kelmaydi, balki shu matngacha shakllangan bo‘ladi, matn uni yuzaga chiqarib beradi.	Nutqiy ma’no esa konkret matnning o‘zida voqe bo‘ladi; ma’lum bir muallif tuzgan matnda shakllanadi, shu matn doirasida mavjud bo‘ladi.
Lisoniy ma’no leksemaga biriktiriladi va barqaror bo‘ladi.	Nutqiy ma’no esa shu leksemaning o‘ziniki deb emas, balki u ishlatilgan matnniki deb qaraladi.
Lisoniy ma’no biror voqelikni nomlash uchun xizmat qiladi (bunda obrazlilik ham ifodalanishi mumkin).	Nutqiy ma’no esa asosan obrazlilik yaratish uchun xizmat qiladi. Nutqiy ma’no biror voqelikning nomi bo‘lmay (bunday vazifani lisoniy ma’no bajaradi), balki voqelikning o‘zgacha ifodasi bo‘ladi.

Yuqoridagi qiyosiy tahlildan ko‘rinadiki, professor Sh.Rahmatullayev lisoniy va nutqiy ma’nolarni o‘zaro uzviy bog‘liqlikda, shu bilan birga, keskin farqlanuvchi hodisalar sifatida talqin etadi. Olim lisoniy ma’noni **turg‘un, umumxalq tomonidan qabul qilingan va lug‘atlarda qayd etilgan invariant** hodisa sifatida baholaydi. Nutqiy (kontekstual) ma’no esa, olimning fikricha, **muayyan muallif nutqiga xos, o‘zgaruvchan va obrazlilik yaratishga yo‘naltirilgan variantdir.** Shunday qilib, Sh.Rahmatullayev tomonidan ilgari surilgan lisoniy ma’no va nutqiy ma’no dialektikasi so‘zning semantik tabiatini nafaqat statik (turg‘un), balki dinamik (o‘zgaruvchan) jarayon sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Tilshunoslikda leksik ma’no so‘zning tilda barqarorlashgan, lug‘atlarda muhrlangan, kontekstga bog‘liq bo‘lmagan holda ham tushuniladigan turg‘un va umum majburiy mazmunidir, biroq so‘z tilda turg‘un holatdagi o‘zgarmas birlik emas, balki nutq jarayonida turli ma’no tovlanishlarini kasb etuvchi dinamik hodisadir. Aynan mana shu jarayonda kontekstual ma’no tushunchasi yuzaga chiqadi. Kontekstual ma’no – bu so‘zning muayyan matn yoki nutqiy vaziyat ta’sirida, boshqa leksik birliklar bilan o‘zaro semantik aloqaga kirishishi natijasida hosil bo‘ladigan vaqtinchalik, ammo obrazli mazmunidir.

Tadqiqotimiz markazida turgan “so‘z ma’nosining kengayishi” jarayoni, ko‘pincha, dastlab mana shunday kontekstual ma’no sifatida kurtak yozadi. Masalan, “quyosh” so‘zi o‘zining leksik (lug‘aviy) ma’nosiga ko‘ra astronomik obyekt – osmon jismini anglatsa, o‘qish darslaridagi badiiy matn kontekstida u “ona”, “mehr”, “hayot manbayi” yoki “baxt” kabi tushunchalarni ifodalovchi kontekstual ma’noga ega bo‘ladi. Bu jarayonda so‘z o‘zining birlamchi denotativ (atash) vazifasidan uzoqlashib, signifikativ (tushunchaviy) hajmini kengaytiradi.

Tilshunosligimizda leksik ma’no yillar davomida taraqqiy etib kelgan, o‘zbek tilshunos olimlari leksik ma’no taraqqiyoti jarayonida so‘zning semantik tarkibida ikki xil asosiy o‘zgarish yuz berganini ta’kidlaydilar:

So‘zning semantik tarkibidagi ma’nolar miqdorining ko‘payishi:

So‘zning semantik tarkibida ma’no hajmi o‘zgaradi.

Ma’no miqdorining ortishi (polisemiya va omonimiya) – bu jarayonda bir leksik birlik takibida yangi ma’nolar hosil boladi, bu asosan ma’no ko‘chish usullari orqali amalga oshadi.

Polisemiya (ko‘p ma’nolilik) – bu asosan metafora, sinekdoxa va vazifadoshlik yo‘li bilan yuzaga keladi. Masalan: til (organ) – til (aloqa vositasi)

Omonimiya – ma’nolar orasidagi bog‘lanishlar uzuladi va yangi mustaqil so‘z “omonim” paydo bo‘ladi: issiq (sifat) – issiq (ot)

Ma’no hajmining o‘zgarishi (kengayish va torayish) – bunda so‘zning ma’no miqdori ortmaydi, balki mavjud bitta ma’noning qamrovi o‘zgaradi.

Ma’no kengayishi: so‘z anglatadigan tushunchalar doirasining ortishi.

Ma’no torayishi: so‘zning umumiy ma’nodan xususiy ma’noga o‘tishi. Masalan: vatan so‘zi qadimda “kishi tug‘ilib o‘sgan qishloq”ni anglatgan bo‘lsa, hozirda butun bir mamlakatni tushunish (tor ma’nodan keng ma’noga o‘tish yoki aksincha jarayonlar).

Xulosa qilib aytganda, so‘z tilda turg‘un holatdagi o‘zgarmas birlik emas, balki nutq jarayonida turli ma’no tovlanishlarini kasb etuvchi dinamik hodisadir. So‘z ma’nosining kengayishi jarayoni inson tafakkurining rivojlanishi va borliqni yanada kengroq idrok etishi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayon tilning ichki imkoniyatlarini boyitib, lisoniy birliklarning mazmun qamrovini oshirishga xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b.

2. Berdualiyev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Xo‘jand, 2013. – 280 b.

3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 260 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 26 b.

5. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.

6. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – 226 b.

7. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 399 b.

8. O‘zbek tili lesikologiyasi. – Toshkent: FAN, 1981. – 316 b.

9. Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 480 b.